

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

**Murodova Kamola Shuxratali qizi**

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail: kamola.bahor@gmail.com [Tel:+998906944090](tel:+998906944090)

**Annotatsiya.** Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonining pedagogik va psixologik jihatlarini yoritadi. Tadqiqotda bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, individual qobiliyatlari va psixologik rivojlanish darajasi kasb tanlashdagi muhim omillar sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim bosqichida kasbga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etish bo'yicha metodik yondashuvlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarning ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada o'quvchilarda mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish, kasblar haqidagi dastlabki tasavvurlarni kengaytirish, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'qituvchi, ota-ona va ijtimoiy muhitning hamkorligi kasbga yo'naltirish jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Olingan natijalar boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda tizimli, maqsadli va psixologik jihatdan asoslangan yondashuvni qo'llash zarurligini tasdiqlaydi. Bunday yondashuv bolalarning kelajak kasbini ongli tanlashiga zamin yaratib, ularning shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda interfaol metodlarni keng rivojlantirish, ota-ona va jamiyat bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'qituvchilar uchun maxsus metodik kurslar tashkil etish tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar.** Boshlang'ich ta'lim, kasb-hunarga yo'naltirish, pedagogik asoslar, psixologik xususiyatlar, o'quvchi shaxsi, qiziqish va qobiliyat, motivatsiya, mehnat tarbiyasi, kasbiy tasavvur, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, ijtimoiy muhit, o'qituvchi va ota-ona hamkorligi.

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF CAREER GUIDANCE FOR PRIMARY SCHOOL STUDENTS

**Murodova Kamola Shukhratali qizi**

Independent Researcher, Namangan State University

**Abstract.** This article examines the pedagogical and psychological aspects of the career guidance process for primary school students. The study analyzes children's age characteristics, interests, individual abilities, and levels of psychological development as important factors influencing career choice. In addition, methodological approaches to the effective organization of career guidance activities at the primary education stage, as well as

*the significance of modern pedagogical technologies and interactive methods, are substantiated.*

*The article analyzes pedagogical conditions aimed at developing students' positive attitudes toward work, expanding their initial understanding of various professions, and fostering creative and independent thinking. The study also highlights the cooperation of teachers, parents, and the social environment as an important factor in increasing the effectiveness of the career guidance process.*

*The obtained results confirm the necessity of applying a systematic, purposeful, and psychologically grounded approach to career guidance for primary school students. Such an approach creates favorable conditions for children to make informed career choices in the future and contributes to their personal development. It is recommended to widely implement interactive teaching methods that take into account students' age characteristics, establish effective cooperation with parents and society, and organize specialized methodological training courses for teachers.*

**Keywords:** *primary education, career guidance, pedagogical foundations, psychological characteristics, student personality, interests and abilities, motivation, labor education, professional awareness, pedagogical technologies, interactive methods, social environment, teacher-parent cooperation.*

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОФИОРИЕНТАЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Муродова Камола Шухратали кизи*

*Независимый исследователь Наманганского государственного университета*

**Аннотация.** *В данной статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты процесса профессиональной ориентации учащихся начальных классов. В исследовании анализируются возрастные особенности детей, их интересы, индивидуальные способности и уровень психологического развития как важные факторы, влияющие на выбор будущей профессии. Кроме того, обосновываются методические подходы к эффективной организации профориентационной работы на этапе начального образования, а также значение современных педагогических технологий и интерактивных методов обучения.*

*В статье анализируются педагогические условия, направленные на формирование у учащихся положительного отношения к труду, расширение первоначальных представлений о различных профессиях, развитие творческого и самостоятельного мышления. Также подчеркивается, что сотрудничество учителя, родителей и социальной среды является важным фактором повышения эффективности процесса профессиональной ориентации.*

*Полученные результаты подтверждают необходимость применения системного, целенаправленного и психологически обоснованного подхода к профориентации учащихся начальных классов. Такой подход создает условия для осознанного выбора будущей профессии и способствует всестороннему развитию личности ребенка.*

*Рекомендуется широко внедрять интерактивные методы обучения с учетом возрастных особенностей детей, налаживать эффективное взаимодействие с родителями и обществом, а также организовывать специальные методические курсы для педагогов.*

**Ключевые слова:** начальное образование, профессиональная ориентация, педагогические основы, психологические особенности, личность учащегося, интересы и способности, мотивация, трудовое воспитание, профессиональные представления, педагогические технологии, интерактивные методы, социальная среда, сотрудничество учителя и родителей.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida jamiyat taraqqiyoti malakali, ijodkor va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, shaxsni kasb-hunarga ongli yo'naltirish jarayoni ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda kasblar haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish, mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatni rivojlantirish hamda kelajak kasb tanlashga psixologik tayyorgarlikni yuzaga keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologik jihatdan faol bilish jarayoniga kirishayotgan, qiziqishlari tez shakllanadigan va o'zgaruvchan davrda bo'ladi. Shu sababli, aynan ushbu bosqichda ularning individual xususiyatlari - qobiliyatlari, moyilliklari, temperament va motivatsion sohalari hisobga olingan holda kasb-hunarga yo'naltirish ishlari olib borilishi zarur [2]. Pedagogik jihatdan esa bu jarayon tizimli, maqsadli va metodik jihatdan asoslangan faoliyatni talab etadi.

Kasb-hunarga yo'naltirishning pedagogik-psixologik asoslarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda mehnat faoliyatiga qiziqishni shakllantirish, ularni turli kasblar bilan tanishtirish, amaliy mashg'ulotlar orqali dastlabki ko'nikmalarni rivojlantirish muhim omillardan hisoblanadi. Bu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda STEAM yondashuvi samarali natija beradi. Chunki ular o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirib, ularni real hayot bilan bog'liq faoliyatga jalb etadi [3].

Shuningdek, kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida o'qituvchi, ota-ona va ijtimoiy muhitning hamkorligi alohida o'rin tutadi. O'quvchi shaxsining shakllanishi ko'p

jihtadan oilaviy muhit, ijtimoiy qadriyatlar va pedagogik ta'sirlarning uyg'unligiga bog'liqdir. Shu bois mazkur jarayonni samarali tashkil etishda kompleks yondashuv zarur hisoblanadi [4].

Mazkur maqolaning maqsadi - boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishning pedagogik-psixologik asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida ko'p yillardan buyon o'rganib kelinayotgan dolzarb yo'nalishlardan biridir. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayon o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishi, uning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash hamda kelajak faoliyatiga tayyorlash bilan uzviy bog'liqdir.

Pedagogik manbalarda kasbga yo'naltirish o'quvchilarga turli kasblar haqida tizimli bilim berish, mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish va amaliy faoliyatga jalb etish orqali amalga oshirilishi ta'kidlanadi [1]. Ayrim tadqiqotchilar ushbu jarayonni erta yoshdan boshlash zarurligini asoslab, aynan boshlang'ich ta'lim bosqichi kasbiy o'zini anglashning dastlabki poydevori ekanligini qayd etadilar [2].

Psixologik adabiyotlarda esa o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilish jarayonlari va motivatsion sohasi kasbga yo'naltirishning asosiy omillari sifatida ko'riladi. Xususan, kichik maktab yoshidagi bolalarda qiziqishlar tez shakllanishi va ularning faoliyatga yuqori darajada moyilligi kasb-hunar haqida dastlabki tasavvurlarni samarali shakllantirish imkonini beradi [3]. Shu bilan birga, individual farqlar — qobiliyat, temperament va xarakter xususiyatlarini hisobga olish muhimligi ta'kidlanadi.

Zamonaviy ilmiy ishlarda kasbga yo'naltirishni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar, xususan, interfaol metodlar, loyihaviy ta'lim va STEAM texnologiyalarining samaradorligi keng yoritilgan [4]. Bu yondashuvlar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish va real hayotiy vaziyatlar bilan bog'liq tajriba orttirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, adabiyotlarda o'qituvchi, ota-ona va ijtimoiy muhitning hamkorligi kasb-hunarga yo'naltirish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oila va maktab o'rtasidagi uzviy hamkorlik o'quvchilarning kasb tanlashga bo'lgan ongli yondashuvini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega [5].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish kompleks, tizimli va psixologik jihatdan asoslangan yondashuvni talab etadi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir qator ilmiy-pedagogik va psixologik metodlardan foydalanildi.

Birinchidan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi qo'llanilib, mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik manbalar o'rganildi hamda ularning mazmuni umumlashtirildi. Ushbu metod orqali kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy asoslari aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, kuzatish metodi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars va sinfdan tashqari faoliyatdagi xulq-atvori, qiziqishlari va faol ishtiroki tahlil qilindi. Bu metod o'quvchilarning kasblarga bo'lgan munosabatini tabiiy sharoitda o'rganish imkonini berdi.

Uchinchidan, so'rovnoma va suhbat metodlari orqali o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalarning fikr-mulohazalari o'rganildi. Natijada kasbga yo'naltirish jarayonining amaliy holati va muammolari aniqlashtirildi.

To'rtinchidan, tajriba-sinov ishlari o'tkazilib, kasb-hunarga yo'naltirishga oid pedagogik usullar amaliyotda sinab ko'rildi. Ushbu metod orqali taklif etilgan yondashuvlarning samaradorligi baholandi.

Shuningdek, tadqiqot natijalarini qayta ishlashda taqqoslash, umumlashtirish va tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Bu esa olingan natijalarni tizimlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qildi

### **NATIJALAR VA MUHOKAMALAR**

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ko'rsatdi. Xususan, dars va sinfdan

tashqari mashg'ulotlarda kasblar bilan tanishtirish, amaliy topshiriqlarni qo'llash hamda interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini sezilarli darajada oshirdi.

Kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, kasb-hunarga yo'naltirish elementlari muntazam qo'llanilgan sinflarda o'quvchilar faolroq ishtirok etib, turli kasblarga nisbatan ongli qiziqish bildira boshlagan. Ayniqsa, amaliy faoliyatga asoslangan mashg'ulotlar (applikatsiya, modellashtirish, oddiy mehnat jarayonlari) o'quvchilarda nafaqat ko'nikmalarni, balki mehnatga hurmat va mas'uliyat hissini ham shakllantirgan.

So'rovnoma va suhbat natijalari esa o'quvchilarning aksariyatida kasblar haqidagi tasavvurlar dastlab umumiy va yuzaki bo'lishini, biroq maqsadli pedagogik ta'sir natijasida ularning ancha boyishi va aniqlashishini ko'rsatdi. O'quvchilar o'z qiziqishlariga mos kasblarni ajrata boshlaganlari, ayrim hollarda esa kelajak kasbi haqida dastlabki fikrlar shakllanganligi kuzatildi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni tasdiqladiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, interfaol metodlar va loyihaviy yondashuvlar o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish bilan birga, ularni kasb tanlash jarayoniga faol jalb etadi. Bunday yondashuv o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish va o'z imkoniyatlarini baholash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, kasb-hunarga yo'naltirishning samaradorligi bir qator omillarga bog'liq. Birinchidan, o'qituvchining metodik tayyorgarligi va ijodkorligi muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, o'quvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Uchinchidan, oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikning yo'lga qo'yilganligi jarayon natijadorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlangan. Jumladan, ba'zi hollarda kasbga yo'naltirish ishlari epizodik xarakterga ega bo'lib, tizimlilik yetarli darajada ta'minlanmagan. Bundan tashqari, metodik qo'llanmalar va amaliy materiallarning yetishmasligi o'qituvchilar faoliyatini cheklashi mumkin.

Umuman olganda, olingan natijalar va ularning tahlili boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda pedagogik va psixologik yondashuvlarning uyg'unligi zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Mazkur jarayonni tizimli tashkil etish, zamonaviy metodlardan foydalanish hamda barcha ishtirokchilarning hamkorligini ta'minlash o'quvchilarning kelajak kasbini ongli tanlashiga mustahkam asos yaratadi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonini tizimli, maqsadli va pedagogik-psixologik jihatdan asoslangan holda tashkil etish zarur. Bunday yondashuv o'quvchilarning kelajak kasbini ongli ravishda tanlashiga zamin yaratadi hamda ularning shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish uzluksiz ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ushbu jarayonni erta bosqichdan boshlab tashkil etish o'quvchilarda kasblar haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish, mehnatga ijobiy munosabatni rivojlantirish va kelajak faoliyatiga ongli yondashuvni qaror toptirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kasb-hunarga yo'naltirish samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvni qo'llash bilan belgilanadi. Shu bilan birga, dars va sinfdan tashqari faoliyatda interfaol metodlar, amaliy mashg'ulotlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Shuningdek, o'qituvchi, ota-ona va ijtimoiy muhitning o'zaro hamkorligi kasb-hunarga yo'naltirish jarayonining muhim sharti ekanligi asoslandi. Ushbu hamkorlik o'quvchilarning kasb tanlashga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonini tizimli, maqsadli va pedagogik-psixologik jihatdan asoslangan holda tashkil etish zarur. Bunday yondashuv o'quvchilarning kelajak kasbini ongli ravishda tanlashiga zamin yaratadi hamda ularning shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Berkinbayeva D.K. Yoshlarni kasbga yo'naltirishning psixologik yechimlari // *Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali*. – 2024. – №39(6). – B. 34–39.
2. Qo'chqorova R.M. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning psixologik xususiyatlari // *Tadqiqotlar jurnali*. – 2024. – №49(1). – B. 126–130.
3. Raxmonova D.M. Maktab o'quvchilari orasida kasbga yo'naltirish ishlarining psixologik jihatlari // *Ustozlar uchun ilmiy jurnal*. – 2026. – №94(1). – B. 269–276.
4. Raimjanova G.U. Maktab ta'limida kasbga yo'naltirishda psixologning ahamiyati // *Tadqiqotlar jurnali*. – 2024. – №39(2). – B. 71–73.
5. Yuliyeva M.B. Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari: muammo va yechimlar // *Tadqiqotlar jurnali*. – 2024. – №38(1). – B. 188–191.
6. Ermatova G.N. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar // *Molodoy ucheniy*. – 2019. – №21. – B. 615–618.
7. Abduvaliyev A. Kasbga yo'naltirish psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
8. Karimova N. Maktab yoshidagi bolalarni kasbga yo'naltirish metodlari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.
9. Razikova L.T. Kasbiy pedagogika va kasbiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
10. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
11. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2010.
12. Nabijonova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasi. – Toshkent, 2002.